



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-fevral

VII-6-17-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i A.Ochilovning 2024-yil davomida hududda jinoyatchilik, huquqbazarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash holati bo'yicha hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagি PF-6196-soni farmoni hamda Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-soni qarorini ijrosi yuzasidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali tumanda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining A.Ochilovning 2024-yil davomida hududda jinoyatchilik, huquqbazarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash holati bo'yicha hisobotini tinglab, muhokama qilib hamda "Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6-, 24, 25<sup>2</sup>-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i A.Ochilovning "2024-yil davomida tuman hududida jinoyatchilik, huquqbazarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash holati bo'yicha" hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o'rinnbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi (S.Djumayeva) ichki ishlar bo'limi bilan hamkorlikda mahalla xotin-qizlar faollari bilan birgalikda nizoli oilalarda oilaviy qadriyatlarni tiklash, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahallabay ishlarni tashkil etsin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov) ruhiy asab kasalliklari dispanseri hisobida turgan, shuningdek spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolash, chet elda ishlab qaytib kelgan shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlarini doimiy ravishda nazoratga olib borsin va bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida hisobot kiritib borsin.

#### 4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov)ga:

-jinoyatchilikning oshishi sabablarini chuqur o‘rganib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq choralarni belgilash, bunda mas’ullarning javobgarligini yanada kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish;

-oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar salmog‘i ortib borayotgan hududlardagi haqiqiy ahvolni o‘rgangan holda vaziyatni yaxshilash bo‘yicha qo‘srimcha choralarni ko‘rish;

-mahalla hududida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktika inspektorlarining mas’uliyatini kuchaytirish;

-jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish borasidagi tadbirlar samaradorligini oshirish, fosh etilmasdan qolayotgan jinoyatlarni ochish ishlarini kuchaytirish;

-jinoyatchilikni jilovlash va jamoat xavfsizligini ta’minalash borasidagi ishlarni lozim darajada tashkil etmagan xodimlarga nisbatan tegishli ta’sir choralarini qo’llash bo‘yicha ishlarni yanada faol davom ettirish vasifasi topshirilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov), mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmurodov), tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov) ga:

-yoshlar, voyaga etmaganlar va xotin-qizlar o‘rtasidagi jinoyatchilik hamda huquqbuzarlikni oldini olish, ularning turmush-tarzi, yashash shart-sharoitlarini yaxshilash;

-muntazam ravishda “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan shaxslar bilan manzilli ishlash orqali muammolarini hal etish, uyushmagan yoshlarni sportga keng jalg qilish, ular hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash;

-mahallalardagi nizoli oilalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilib, fuqarolarda mavjud nizoli masalalarni aniqlash va ularni bartaraf etishda mahalladagi profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faolining rolini kuchaytirish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta’minalash tuman Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH